
MAJBURIY ONA TILI

1. Qaysi gapda soʻz qoʻllash bilan xatolik mavjud emas?
 - A) Quyosh hamal burchiga oʻtdi.
 - B) Bir kuni oʻrmon shoxi sher barchani chaqirib, majlis oʻtkazibdi.
 - C) Yoʻlga yondash anhor shovullab oqardi.
 - D) Oʻzbek xalqi ichidan oʻnlab daholar yetishib chiqqan.
 2. Qaysi javobdagi soʻzlar toʻgʻri yozilgan?
 - A) million, dardchil
 - B) telivezor, mehnat
 - C) material, tamon
 - D) maxsulot, masofa
 3. Qaysi gapdagi **ayirmoq** soʻzi "*mahrum qilmoq*", "*judo qilmoq*" maʼnolarida qoʻllangan?
 - A) Bolalarim, endi katta hayotga qadam qoʻymoqdasizlar, yaxshini yomondan, halolni haromdan ayiringlar.
 - B) Ikki doʻstning hazili janjalga aylanib ketdi, Nodirjon ularni zoʻrgʻa ayirib qoʻydi.
 - C) Bu ikki kasallikni bir-biridan ayira olmasangiz, oʻzingizcha davolanishga harakat qilmang.
 - D) Qoʻshnilarning bu gapi Malika opani es-hushidan ayirdi, devorga majolsiz suyanib qoldi.
 4. *Xalq tabobati... qulupnay mevasi terlatuvchi, bezgak xuruji... qarshi omil sifatida tavsiya etiladi.* Ushbu gapda nuqtalar oʻrniga qaysi kelishik qoʻshimchalarini qoʻllash uslubiy jihatdan toʻgʻri sanaladi?
 - A) joʻnalish va chiqish kelishiklari
 - B) chiqish va oʻrin-payt kelishiklari
 - C) tushum va joʻnalish kelishiklari
 - D) oʻrin-payt va joʻnalish kelishiklari
 5. Quysi javobda ajratib yoziladigan soʻzlar berilgan?
 - A) yilma // yil, Olti // ariq
 - B) kino // yulduz, ilmiy // maʼrifiy
 - C) qoʻsh // tabaqa, anti // virus
 - D) talab // qil, har // xil
 6. Qaysi gapda koʻchma maʼnoli soʻz mavjud emas?
 - A) Quvnoq musiqa yigitning koʻngil torlarini chertdi.
 - B) Talabalik oltin davrimiz edi, doʻstim.
-

-
- C) Qiz baland binolarga birpas termilib qoldi.
D) Biz Hamidjon bilan qalin do'st edik.
7. Qaysi gapda vergul undalmani boshqa bo'laklardan ajratish uchun qo'yilgan?
A) Birozdan so'ng Hasan aka, fizik o'qituvchisi, kirib keldi.
B) Soy bo'yidagi choyxonada, gavjum joyda, Azimjon uchradi.
C) Tarixingdir ming asrlar ichra pinhon, o'zbekim.
D) Kimga pand-u nasihat qilsang, unga, avvalo, o'zing amal qil.
8. *Bahor keldi, tabiat **jonlandi**.* Ushbu gapda ajratib ko'rsatilgan so'z qanday ma'noda qo'llangan?
A) qizarmoq, qizil tusga kirmoq
B) rivojlanmoq, ravnaq topmoq
C) tirilmoq, hayotga qaytmoq
D) nobud bo'lmoq, yo'q bo'lmoq
9. Qaysi gapda bosh harflarni qo'llash bilan bog'liq imloviy xatolik uchraydi?
A) Bulung'ur tuman hokimligi
B) Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi
C) Temuriylar Tarixi Davlat muzeyi
D) Sog'liqni saqlash vazirligi
10. Qaysi javobda berilgan gapda imloviy jihatdan noto'g'ri yozilgan so'z ishtirok etgan?
A) Ma'naviyat insonning, xalqning, jamiyatning kuch-qudratidir.
B) Agar shu topshiriqni bajarmasa, obro'i bir pul bo'ladi.
C) Ertalab o'rningdan quvonch bilan tur, kechqurun kulgi bilan uxlashga yot.
D) Xalq seniki emas, sen xalqnikipisan.
-